

## **AXBOROTLASHTIRISH TIZIMIDA SOLIQ YUKINI OPTIMALLASHTIRISH VA TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI**

*TDIU mustaqil tadqiqotchisi*

**R.A.Nasimov**

**Annotatsiya:** Maqolada soliq yukining ta'sirini doimiy ravishda dolzarb tadqiqot mavzui hisoblanadi. Soliq yukining iqtisodiy faoliyatga ta'siri, soliq yuki og'irligini xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasida taqsimlanishi muammolari, soliq yuki og'irligini boshqa bir sub'ektlarning zimmasiga o'tkazilishi, soliq yukini soliq to'lovchi sub'ektlarning moliyaviy holatiga ta'siri kabi yoritilgap. Bundan tashqari, mahalliy byudjet daromadlarini oshirish yo'llari bo'yicha tadqiqot olib borilgan bo'lib, mavzu doirasida iqtisodchi olimlarning tadqiqotlari o'rganilib, xulosa va takliflar shakllantirildi.

**Kalit so'zlar:** yer, yer solig'i, ko'chmas mulk, mahalliy byudjet, mahalliy byudjet daromadlari, mahalliy hokimiyat organlari, mahalliy soliqlar, resurs soliqlari, soliq, byudjet, soliq stavkasi, soliq hisoboti, soliq tushumlari, soliq imtiyozlari.

**Kirish:** So'nggi yillarda rivojlangan davlatlarda va etakchi xalqaro moliya inctitutlari, ilmiy tadqiqot markazlari tomonidan soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish macalalari, Hususan, soliq yukini pasaytirish, soliq qarzdorligini kamaytirish mexanizmlarini takomillashtirish hamda soliqlarning o'z muddatida to'lanmaganligi uchun penyalar hisoblash mexanizmi va miqdorining optimal yo'llarini ishlab chiqish yuzacidan keng qamrovli ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Iqtisodiyotda soliq yukining ta'sirini doimiy ravishda dolzarb tadqiqot mavzui hisoblanadi. Olimlarning diqqat-e'tiborini asosan soliq yukining iqtisodiy faoliyatga ta'siri, soliq yuki og'irligini xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasida taqsimlanishi

muammolari, soliq yuki og'irligini boshqa bir sub'ektlarning zimmasiga o'tkazilishi, soliq yukini soliq to'lovchi sub'ektlarning moliyaviy holatiga ta'siri kabi masalalar nisbatan ko'proq qiziqtirgan.

Bugungi kunda sohalar bo'yicha o'rtacha soliq yukini hisoblash natijalarini soliq to'lovchilarga taqdim etish imkoniyati yaratilmagan.

Soliq to'lovchilarga o'zlarining soliq yuklarini hisoblash uchun avtomatlashtirilgan tizim yaratilmagan hamda qo'lda hisob-kitoblar amalga oshirilishini talab qiladi.

Tadbirkorlik faoliyatini boshlash xohishi bo'lgan shaxslarda o'zlari tanlagan sohada o'rtacha soliq yukini hisoblash uchun ma'lumotlar mavjud emas

1. Iqtisodiy faoliyat turi:

- Yuqoridagi bandeda "Umumbelgilangan soliqlar" yoki "Aylanmadan olinadigan soliq" tanlangan taqdirda – qalqib chiquvchi ro'yxatdan tegishli iqtisodiy faoliyat turini tanlash, shuningdek, ushbu maydonning yonida IFUT kodini terish orqali tegishli faoliyat turini avtomatik tanlab olish imkoniyatini yaratish kerak (Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 24 avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 275-son qarori 1-ilovasi).

- yakka tartibdagi tadbirkor tanlangan taqdirda - qalqib chiquvchi ro'yxatdan yuridik shaxs tashkil etmasdan shug'ullanish mumkin bo'lgan faoliyat turlari ro'yxatidan mos faoliyat tanlanishi imkoniyatini yaratish kerak (Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 7 yanvardagi "Xususiy tadbirkorlar yuridik shaxs tashkil etmasdan shug'ullanishi mumkin bo'lgan faoliyat turlari ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorining 1-ilovasi)

2. Faoliyat yuritiladigan hudud - qalqib chiquvchi ro'yxatdan O'zbekiston Respublikasining tegishli ma'muriy birligi (QQR, viloyatlar va Toshkent shahri) hamda tegishli tuman (shahar) tanlanadi.

3. **Yalpi tushum** – qalqib chiquvchi ro'yxatdan kutilayotgan tushum miqdori belgilanadi.

- yuz milliongacha
- yuz milliondan - bir milliardgacha;
- bir milliarddan – yigirma besh milliardgacha
- yigirma besh milliarddan ortiq

4. Soliq rejimi - qalqib chiquvchi ro'yxatdan "Umumbelgilangan soliqlar", "Aylanmadan olinadigan soliq" yoki "Qat'iy belgilangan soliq" tanlanadi.

5. Soliq davri - qalqib chiquvchi ro'yxatda (выпадающий список) moliyaviy hisobotlar taqdim etilgan soliq davrlari ro'yxati chiqadi. So'nggi uch yil ma'lumotlari bilan ishlash maqsadga muvofiq.

**"3" foydalanish ssenariysi:** Ma'lumotlarni shakllantirish

Soliq yukini hisoblashda Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 7 yanvardagi 1-soni qarori bilan tasdiqlangan Soliq xavfini boshqarish, soliq xavfi mavjud soliq to'lovchilarni (soliq agentlarini) aniqlash va ularni soliq xavfi darajasi bo'yicha toifalash tartibi to'g'risida Nizomning 9-punktiga asosan quyidagi tartibda aniqlanadi:

$$B = T \times 100\% / In$$

Bunda:

**B** — soliq yuki;

**T** — soliq davri davomida to'lanishi lozim bo'lgan soliqlar summasi;

**In** — soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) sotishdan tushgan daromad.

**Soliq davri davomida to'lanishi lozim bo'lgan soliqlar summasi (T)** soliq to'lovchilarning shaxsiy kartochkalarida (Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'idan tashqari) "jami hisoblangan soliqlar va yig'imlar" hamda "barcha to'langan soliq va yig'imlar" (*Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'idan tashqari*) ko'rsatkichlarining eng kattasi sifatida aniqlanadi.

**Soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) sotishdan tushgan daromad (In)** Umumbelgilangan soliqlar to'lovchilari tomonidan taqdim etilgan foyda solig'i

hisob-kitobining 010-satri, Aylanmadan olinadigan soliq to'lovchilar uchun AOS hisob-kitobining 010-satri ko'rsatkichlari sifatida aniqlanadi.

### **Bir milliarddan ko'p aylanmani tanlagan foydalanuvchilar uchun**

**1. Soliq yuki** (Er qa'ridan foydalanganlik uchun soliq va aksizlardan tashqari). "T"dan Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq hamda aksiz solig'i ayirmasini" 100 foizga ko'paytirish hamda "In"ga bo'lish orqali aniqlanadi va foiz ko'rsatkichlarda shakllantiriladi.

**2. Umumiy soliq yuki** (Er qa'ridan foydalanganlik uchun soliq va aksizlar bilan birga). "T"ni 100 foizga ko'paytirish hamda "In"ga bo'lish orqali aniqlanadi va foiz ko'rsatkichlarda shakllantiriladi.

**3. Foyda solig'i (AOS) yuki.** Umumbelgilangan soliqlar to'lovchilari uchun foyda solig'i hisob-kitobining 110-satri, Aylanmadan olinadigan soliq to'lovchilar uchun AOS hisob-kitobining 090-satri ko'rsatkichlarini 100 foizga ko'paytirish hamda "In"ga bo'lish orqali aniqlanadi va foiz ko'rsatkichlarda shakllantiriladi.

**4. Qo'shilgan qiymat solig'i yuki.** Qo'shilgan qiymat solig'i hisob-kitobining 030-satri ko'rsatkichlarini 100 foizga ko'paytirish hamda "In"ga bo'lish orqali aniqlanadi va foiz ko'rsatkichlarda shakllantiriladi.

**5. Sotuvlar rentabelligi.** Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobotning (2-son shakl) 240-satrining 010-satrga nisbatini foiz ko'rinishida aks ettirish orqali hisoblanadi.

**6. Soha bo'yicha o'rtacha ish haqi.** Yuridik shaxslar (soliq agentlari) tomonidan taqdim etiladigan Daromad solig'i hisoboti hisob-kitobining 011-satrida ko'rsatilgan "Mehnatga haq to'lash bilan bog'liq bo'lgan daromadlar" summasining tashkilotda ishlovchi xodimlarining soniga (Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i va yagona ijtimoiy to'lov to'lovchisi to'g'risida ma'lumotlardagi "hisobot davrida o'rtacha xodimlar soni" qatoridagi ko'rsatkich) nisbati sifatida aniqlanadi.

\* haqiqiy soliq yukini va soha bo'yicha o'rtachaga nisbatan o'zgarishni ko'rish uchun foydalanuvchi o'z ma'lumotlarini kiritishi taklif qilinadi.

### **Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun**

To'lanadigan soliqlar summasi. Ko'rsatilgan hududda soliq davridagi qat'iy belgilangan miqdordagi soliq hamda ijtimoiy soliq stavkasi ko'rsatiladi.

Natijalar alohida oynada shakllantirilishi hamda ularni Excel dasturida ochiladigan fayl ko'rinishida yuklab olish tugmachasi bo'lishi kerak.

**“4” foydalanish ssenariysi:** ERI orqali avtorizatsiyadan o'tish\*

Foydalanuvchi o'z ma'lumotlari va soha bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichlarni solishtirish xohishi bo'lgan taqdirda ERI orqali avtorizatsiyadan o'tishi va taqqoslama ma'lumotlarni shakllantirish imkoniyatini ko'zda tutilishi kerak.

**“5” foydalanish ssenariysi:** Ma'lumotlarni shakllantirish, ma'lumotlarni olish

“O'z ma'lumotlaringizni solishtirib ko'ring” tugmasi orqali shaxsiy ma'lumotlarni kiritish uchun yangi interaktiv oyna ochilishi, va u yerda quyidagi funksiya mavjud bo'lishi kerak:

O'z soliq yukini o'rtacha ko'rsatkichlar bilan solishtirish. Ushbu funksiya orqali foydalanuvchi (Yuridik shaxs va YaTT) o'zi tanlagan soliq davridagi taqdim etilgan moliyaviy hisoboti ma'lumotlaridan yuqorida keltirilgan tartibda soliq yuki ko'rsatkichlari avtomatik ravishda hisoblanishi hamda “Haqiqiy” ustunida aks ettirilishi kerak.

Shuningdek “O'zgarish” ustunida “Haqiqiy” ustunidagi ma'lumotlarning “Soha bo'yicha o'rtacha” ustunidagi ma'lumotlarga nisbatan mutlaq ko'rsatkichda o'zgarishi ko'rsatilishi kerak (ijobiy farq yashil rangda, salbiy farq manfiy ko'rsatkichda va qizil rangda).

Natijalar alohida oynada shakllantirilishi hamda ularni Excel dasturida ochiladigan fayl ko'rinishida yuklab olish tugmachasi bo'lishi kerak.

Foydalanuvchilarning soni va malakasiga qo'yiladigan talablar

Foydalanuvchilar AATdan 24/7 rejimida doimiy va to'xtovsiz foydalanishlari mumkin.

AAT barqaror ishlashi uchun quyidagilar talab etiladi:

- serverlar, server dasturiy ta'minotlari va axborot uzatish tarmoqlarining benuqson hamda uzluksiz ishlashining ta'minlanishi;
- administratorlar tomonidan tizimga boshlang'ich ma'lumotlarni to'g'ri kiritilishi va maxsus administratorlik dasturi yordamida tizim to'g'ri boshqarib borilishi;
- operatorlarga texnik ko'mak beruvchi doimiy qo'llab-quvvatlash xizmati to'laqonli faoliyat ko'rsatishi.

Xodimlarning lozim darajadagi bilim va malakaga ega bo'lishiga erishish maqsadida, tizim foydalanuvchilari, administratorlari hamda qo'llab-quvvatlash xizmati xodimlari uchun buyurtmachining mutaxassislari tomonidan tizimdan foydalanish qoidalari bo'yicha oldindan o'quvlar tashkil etilishi va yuqori saviyada o'tkazilishi lozim.

O'quvlar buyurtmachi tomonidan, tizimni ishlab chiqaruvchi korxonalar (fuqaro) bilan kelishilgan holda tashkil etilishi va o'quvni yuqori saviyada o'tkazish uchun barcha shart-sharoitlar yaratilishi lozim.

#### ***Vazifasi ko'rsatkichlari***

Ma'lumotlarning hajmi ko'payishi bilan bog'liq bo'lgan sekinlashishni bartaraf etish uchun, server qurilmalari va aloqa tarmoqlarining tezliklarini orttirish yetarli bo'lishi va bunda dasturiy ta'minotga o'zgarishlar kiritish talab etilmasligi lozim.

AAT tashqi ko'rinishi va hisobot shakllariga kiritiladigan kichik o'zgarishlar tizimning ishi vaqtincha to'xtatib qo'yilishini talab etmasligi, dasturiy ta'minot ishlab turgan vaqtning o'zida takomillashtirish va ehtiyojlarga moslashtirish imkoniyatlariga ega bo'lishi lozim.

#### ***AAT bajaradigan funksiyalarga (vazifalarga) qo'yiladigan talablar***

AAT ishlashida tezkorlikni ta'minlash maqsadida hisobot shakllaridan olinadigan ma'lumotlarni oldindan yuklab olish kerak (serverga so'rovlar miqdorini kamaytirib, boshqa axborot tizimlari ish faoliyatiga ta'sirni minimallashtiradi).

Pudratchi tomonidan har chorakda AATning barcha sohalar va hududlar bo'yicha o'rtacha soliq yuki, sotuvlar rentabelligi va o'rtacha oylik maosh to'g'risida ma'lumotlar Davlat soliq qo'mitasiga umumlashtirish uchun taqdim etib boriladi.

**Xulosa va takliflar:** Mamlakatimiz iqtisodiyotini raqamlashtirishning rivojlanishi sharoitida davlat soliq xizmati organlari tomonidan soliq qarzdorligini undirish ma'murchiligidagi har bir yo'nalishda soliqlarni majburiy undirish uchun nazorat ishlarini, ya'ni mas'ul bo'lgan tashkilotlarga ayniqsa xizmat ko'rsatayotgan bank muassasalari javobgarligini kuchaytirish ya'ni barcha bosqichlarni elektron shaklga o'tkazish, mavjudlarini yanada takomillashtirish lozim.

Shuningdek, jismoniy shaxslarning soliq qarzini undirishdagi mavjud muammo va kamchiliklarning amaldagi holatini xorij tajribasi bilan taqqoslab, soliqlar belgilangan muddatida to'lanmaganligi uchun hisoblanadigan penya miqdorini soliqlarning rag'batlantiruvchi funksiyasi doirasida mamlakatda mavjud inflyatsiya darajasini hisobga olib, qarzdorlikning paydo bo'lish sabablaridan kelib chiqqan holda qisqartirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-sonli Farmoni.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi- Toshkent: G'afur G'ulom nashriyot uyi 2020.- 640 b.

Normurzaev U. (2021). Analiz effektivnosti nalogovыx lgot i preferensiy v podderjke opredelennyx sektorov s selyu dalneyshego rovysheniya investitsionnoy privlekatelnosti v Uzbekistane. *Ekonomika i obrazovanie*, (6), 82–86. izvlecheno ot <https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/view/285>

Normurzaev U. (2021). Puti effektivnogo ispolzovaniya nalogovыx lgot dlya podderjki predprinimateley. *Ekonomika i innovatsionnyye texnologii*, (4), 355–362. izvlecheno ot [https://inlibrary.uz/index.php/economics\\_and\\_innovative/article/view/11954](https://inlibrary.uz/index.php/economics_and_innovative/article/view/11954)